

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
NAVOIY KON-METALLURGIYA KOMBINATI

NAVOIY DAVLAT KONCHILIK INSTITUTI

Kimyo-metallurgiya fakulteti

«Iqtisodiyot va menejment» kafedrasi

Ulashev I.O., Rahimov Sh.Sh., Ro`ziev.I.I.

IQTISODIYOT NAZARIYASI

Ko`rgazmali o`quv qo`llanma

Navoiy-2006 y.

Ushbu ko`rgazmali o`quv qo'llanma «Iqtisodiyot nazariyasi» fanidan bakalavriat talabalarining zaruriy tayyoragarlik darajasi bilimlariga qo'yiladigan talablar, O`zbekiston Respublikasining «Ta'lif to`g`risida»gi qonuni, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va mazkur fanni o`qitishning Namunaviy dasturi (Toshkent, 2004) asosida tayyorlangan. Qo'llanmada asosiy e'tibor «Iqtisodiyot nazariyasi»ning tushunchalari, qoidalari va ta'riflarning aniq va ravshan bo`lishiga, shuningdek ularning hayotiy dalillar bilan tasdiqlanishiga, amaliy jihatlariga qaratildi. Unda Prezidentimiz I.A.Karimov asarlarida bayon etilgan iqtisodiy islohotlar amaliyoti, mamlakatimizda ro`y berayotgan iqtisodiy o`zgarishlar bilan bog`lanishiga katta ahamiyat berildi.

Mazkur o`quv qo'llanmaning yana bir ahamiyatli jihatlaridan biri bu iqtisodiy qonun-qoidalarni va xulosalarni ko`rgazmali tarzda berilishi, erkin muloqot savollari va testlar, aniq daliliy raqamlarning va ko`rgazmali materiallarning keltirilishidan iborat. Shu bois ham Qo'llanma iqtisodiyot nazariyasini mustaqil o`rganish talablaridan kelib chiqqan holda o`quvchilarga yangicha iqtisodiy fiklash ko`nikmasini shakllantirish zaruriyatini, ustoz va shogird o`rtasida ko`rgazmali ochiq muloqot yuritish imkonini ham hisobga olgan.

Qo'llanma iqtisodiyotning umumiylaschlari, bozor iqtisodiyoti nazariyasi, mikro va makroiqtisodiyot darajalarida amal qiladigan iqtisodiy munosabatlari, O`zbekiston milliy iqtisodiyotining o`ziga xos tamoyillari va ko`rsatkichlari hamda jahon xo`jaligi va xalqaro iqtisodiy munosabatlarga tegishli bo`lgan jami 27 mavzuni qamrab olgan mualliflar mazkur qo'llanma yuzasidan bildiriladigan tanqidiy taklif-mulohazalarni samimiylaschlilik bilan qabul qilishlarini bildiradilar.

O`quv qo'llanma NDKI Oquv-uslubiy kengashi va O`zR OvaO'MTV Muvofiqlashtiruvchi kengashi qarorlari bilan tasdiqlangan.

Taqrizchilar:

BuxOOvaeSTI «Iqtisodiyot nazariyasi» kafedrasini mudiri, i.f.d., professor B.N.Navro`z-Zoda,

NavDPI «Iqtisodiyot» kafedrasini mudiri, i.f.n., dotsent Z.X.Zoirov,

NavDKI «Iqtisodiyot va menejment»
kafedrasini dotsenti, i.f.n. B.B.Raxmatov

Respublikamiz sobitqadamlik bilan bozor iqtisodiyotiga o'tib bormoqda. Iqtisodiy islohotlar asosida mamlakatimiz iqtisodiyoti tubdan o'zgartirilib, yangicha iqtisodiy munosabatlar bo'lган bozor iqtisodiyotining rivojlanishiga qulay shart-sharoitlar yaratilmoqda. Mulkchilik shakllari va xo'jalik yuritish usullarining ko'payishi, tadbirkorlik faoliyatini kengaytirish, shuningdek iqtisodiyotni har taraflama erkinlashtirish shular jumlasidandir. Bozor iqtisodiyoti kishilarda iqtisodiy bilimlarni chuqurroq o'rganish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Iqtisodiy bilimlarni puxta egallamay turib, inson o'z turmush darajasini, hayot kechirish tarzini yuksaltira-olmaydi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida esa barcha yaxshi yashashga intiladi, zero buning uchun zarur imkoniyatlar ham mavjuddir.

«Iqtisodiyot nazariyasi» fani iqtisodiyot tushunchalarini uning qonun-qoidalarini, tejamli xo'jalik yuritish sirlarini, turli kishilar va xo'jaliklarning bir-birlari bilan manfaatli iqtisodiy aloqada bo'lib, unumli mehnat qilish yo'llarini va shakllarini o'rgatadi. Bu borada atoqli vatandoshimiz mashhur ma'rifatparvar Abdulla Avloniy «Iqtisod deb, pul va mol kabi ne'matlarning qadrini bilmoque aytilur, mol qadrini biluvchi kishilar o'rinsiz yerga bir tiyin sarf qilmas, o'rn ni kelganda so'mni ayamas» degan edilar.

Iqtisodiy bilimlarni egallahash orqali kishilar o'z daromadlarini oshirishlari, turmush darajalarini yaxshilashlari bilan bir qatorda, jamiyat boyligini ko'paytirishga, milliy daromadning ortishiga va bir so'z bilan mamlakatning iqtisodiy o'sishiga sababchi bo'lishadi. Bu jarayonni Prezidentimiz I.A.Karimov tomonidan belgilab berilgan va «Pirovard maqsadimiz ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga, ochiq tashqi siyosatga ega bo'lган kuchli demokratik davlatni va fuqarolik jamiyatini barpo etishdan iborat» bo'lган asosiy amri amalimizning moddiy omili ekanligini ta'kidlash joiz.

«Iqtisodiyot nazariyasi» fanining siru sinoatlarini o'rganish mashg'ulotlarida qo'llanishga mo'ljallangan mazkur ko'rgazmali o'quv-uslubiy qo'llanma bugungi kun zamon talablaridan kelib chiqqan holda yaratilgan. Ta'limning ilg'or pedagogik usullardan foydalanishga asoslanib, qo'llanma har bir mavzu bo'yicha talabalarni mustaqil fikrlashga va dolzarb masalalar bo'yicha o'zaro bahs-munozara yuritishga undovchi test savollari, turli topshiriqlarni o'z ichiga olgan. Uslubiy qo'llanmada mavzularni talabalarga yanada tushunarliroq yetkazishga xizmat qiladigan ko'rgazmali vositalardan namunalar ham keltirilgan. Nazariy bilimlarni talabalar ongida chuqurroq o'rashishiga, amaliy mashg'ulotlarni samarali tashkil etilishi maqsadga muvofiq vazifa tarzida qaralgan.

Ushbu qo'llanma Respublika Oliy va o'rtalik maxsus, kasb-hunar ta'limini rivojlantirish markazi tomonidan ishlab chiqilgan va OO'MTV tomonidan tasdiqlangan namunaviy dasturdagi barcha mavzularni qamrab olgan. O'ylaymizki, mazkur qo'llanma, mamlakatimizdagi iqtisodiy islohotlarning mazmun-mohiyatini to'g'ri tushuntirgan holda, ularning faollashuviga o'zinig munosib ulushini qo'shadigan, iqtisodiy tafakkuri takomillashgan yoshlarni tarbiyalashga ko'maklashaoladi.

1-MAVZU. IQTISODIYOT NAZARIYASI FANINING PREDMETI VA USLUBI


Mavzuga oid asosiy tushunchalar

«Iqtisodiyot nazariyasi» fanining predmeti - iqtisodiy resurslar cheklangan sharoitda jamiyatning cheksiz ehtiyojlarini qondirish maqsadida moddiy ne'matlarni va xizmatlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilish jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlarni xo'jalikni samarali yuritish qonun-qoidalarini o'rghanishdan iborat.


Cheklangan iqtisodiy resurslardan unumli foydalanib, kishilarning yashashi, kamol topishi uchun zarur bo'lgan hayotiy vositalarni ishlab chiqarish va iste'molchilarga yetkazib berishga qaratilgan, bir-biri bilan bog'liqlikda amal qiladigan turli-tuman faoliyatlarni yaxlit qilib birlashtiruvchi iqtisodiy tizim iqtisodiyot deb ataladi.

KO'RGAZMALI CHIZMALAR


1.1-ko'rgazma



1.2-ko'rgazma



1.3-ko`rgazma



TALABALAR BILAN ERKIN MULOQOT YURITISH SAVOLLARI:

1. Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti va uning ahamiyati?

2. Iqtisodiyot nazariyasi fanining taraqqiyot bochqichlarini tushuntiring?
3. Iqtisodiyot jamiyat taraqqiyotining asosi va poydevori ekanligini asoslang?
4. Iqtisodiyotga nisbatan siyosatning ustuvorligi va uning oqibatlari nimalardan iborat?
5. «Merkantelizm» va «fiziokratlar» iqtisodiy ta'limotlarining mohiyati, ulardagи ijobiy jihatlarni bugungi iqtisodiyotga tadbiq etilishi?
6. Iqtisodiy qonunlarning obektivligini qanday tushuntirasiz?
7. Umumiqtisodiy qonunlarning mazmunini tushuntiring.
8. Iqtisodiy kategoriylar qanday turkumlanadi?
9. «Iqtisodiyot nazariyasi» fanining vujudga kelishi va rivojlanishi nima uchun sanoatning rivojlanishi bilan bog`liqligini tushuntiring?
10. Iqtisodiy ta'limotlarning rivojlanishida Sharq mutafakkirlarining qanday o`rni bor?

MAVZUGA OID TESTLAR

1. Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti nimadan iborat?

- A) Ijtimoiy munosabatlarni o`rganish;
- B) Siyosiy munosabatlarni o`rganish;
- S) Iqtisodiy munosabatlarni va ijtimoiy xo`jaliklarni samarali yuritish qonun-qoidalarini o`rganish;
- D) Xuquqiy munosabatlarni o`rganish;
- E) Tabiiy jarayon va xodisalarni o`rganish.

2. Markaziy Osiyoda yashab o`tgan qaysi mutafakkirlar asarlarida iqtisodiy g`oyalar o`z aksini kengroq topgan?

- A) Farobi, Ibn Sino;
- B) A.Navoiy, A Temur;
- S) Beruniy, Yu.H.Hojib;
- D) Ulugbek, Z Bobur;
- E) Yuqoridagilarning barchasining asarlarida.

3. Iqtisodiy nazariyaning qaysi oqimida savdo-sotiq va asosan tashqi savdo barcha boyliklarning manbai deb hisoblanadi?

- A) Merkantelizm;
- B) Fiziokratlar;
- S) Mumtoz burjua iqtisodiy maktabi;
- D) Marksistik nazariya;
- E) Marjinalizm;

4. «Iqtisodiyot nazariyasi» fani fanlarning qanday guruhiba kiradi?

- A) Iqtisodiy fanlar;
- B) Siyosiy fanlar;
- S) Ijtimoiy fanlar;
- D) Ijtimoiy-gummanitar fanlar;
- E) Tabiiy fanlar.

5. Iqtisodiyot nazariyasi fani nimani urgatadi?

- A) Ijtimoiy tuzumlarni;

B) Kishilik jamiyati rivojlanishining iqtisodiy qonun va qonuniyatlarini;
S) Ishlab chiqarish kuchlarini;

D) Moddiy ne'matlar ishlab chiqarishni;

E) Ishlab chiqarishning texnologik usullarini;

6. Quyidagilardan qaysi biri umumiqtisodiy qonunlar jumlasiga kiradi?

A) Qiymat qonuni;

B) Talab qonuni;

S) Taklif qonuni;

D) Ehtiyojlarning yuksalib borish qonuni;

E) Foyda kelishining kamayib borish qonuni;

7. Iqtisodiyotning bosh va doimiy muammosi nima?

A) Aholi ehtiyojini qondirib borish;

B) Aholining doimiy ish bilan ta'minlanishini yo'lga ko'yish;

S) Ehtiyojlarning cheksizligi va iqtisodiy resurslarning cheklanganligi

D) Unumdoorlikni doimiy oshirib borish;

E) Mahsulot qiymatini kamaytirib borish.

8. Tarixiy taraqqiyot darajasiga ko'ra iqtisodiyotning turlaridan birini ko'rsating?

A) Iste'molga asoslangan iqtisodiyot;

B) Ishlab chiqarishga asoslangan iqtisodiyot;

S) Natural xo'jalik iqtisodiyoti;

D) Yashirin iqtisodiyot;

E) Ma'muriy - buyruqbozlik iqtisodiyoti;

9. «Fiziokratlar»lar iqtisodiy oqimi vakillari qanday g'oyani ilgari surgan edilar?

A) Jamiyat boyligining asosi ayriboshlashda;

B) Jamiyat boyligi qishlok xo'jaligida yaratiladi;

S) Boylikni asosi inson mehnatinig mahsuli;

D) Boylik - texnik taraqqiyotning mahsuli;

E) Boylikning manbai resurslardan samarali foydalanishdir;

10. Quyidagi iqtisodiy qonunlardan maxsus o'ziga xos iqtisodiy qonunlar turkumiga tegishli bo'lgan qonunni aniqlang?

A) Takror ishlab chiqarish qonuni;

B) Qo'shimcha qiymat qonuni;

S) Qiymat qonuni;

D) Unumdoorlikni oshirib borish qonuni;

E) Talab va taklif qonuni;

**2-MAVZU. ISHLAB CHIQARISH JARAYONI MAZMUNI,
OMILLARI VA NATIJALARI**

Mavzuga oid asosiy tushunchalar

Ishlab chiqarish jarayoni - kishilarning maqsadni ko'zlab amalgalashiriladigan faoliyati bo'lib, iste'mol uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy ne'matlarni yaratishga qaratilgan jarayon.


Ishchi kuchi - insonning mehnat qilishga bo'lgan aqliy va jismoniy qobiliyatlari yig'indisi.

Ijtimoiy ishlab chiqarish - o'zaro bog'langan va aloqada bo'lgan barcha individual ishlab chiqarishlarning yig'indisi.


Yalpi milliy mahsulot - bu ma'lum vaqt davomida yaratilgan va bevosita iste'molchilarga borib yetadigan barcha tayyor mahsulot va ko'rsatilgan xizmatlarning bozor bahosidagi qiymati.

KO'RGAZMALI CHIZMALAR


2.1-ko'rgazma



2.2-ko'rgazma



2.3-ko`rgazma



TALABALAR BILAN ERKIN MULOQOT YURITISH SAVOLLARI

1. Jamiatning ishlab chiqaruvchi kuchi va uning jamiyat hayotidagi o'rnnini tushuntiring?
2. Mehnat jarayoni va ish kuchi tushunchalarini izohlang?
3. Ishlab chiqarish omillari birikishining qaysi usuli afzal va nima uchun?
4. Ishlab chiqarish jarayonining rivojlanishi jamiyat taraqqiyotining muhim sharti ekanligini ko`rsating?
5. Ishlab chiqarishning moddiy va nomoddiy sohalari, ularning o'zaro aloqadorligini tushuntiring?
6. Ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqarish bilan iste'mol buyumlarini ishlab chiqarish bo`linmalaridan qaysi biri muhim va nima uchun?
7. Tadbirkorlik qobiliyatining ishlab chiqarish jarayoni rivojidagi o'rnnini tushuntiring.
8. Milliy mahsulot nima va u qiymat jihatidan qanday tarkibiy qismlarga bo`linishi?

9. Zaruriy va qo'shimcha mahsulotning qay biri jamiyat uchun afzalligini qanday tushunasiz?
10. Ishlab chiqarish samaradorligi ko'rsatgichi qanday hisoblanadi va uni yuksaltirishga qaysi omillar ta'sir ko'rsatadi?

MAVZUGA OID TESTLAR

1. Quyidagilardan qaysi biri iqtisodiy resurslar tarkibini to'liq aks ettiradi?

- A) Mehnat vositalari va ishchi kuchi;
- B) Kapital, yer, ishchi kuchi va tadbirkorlik layoqati;
- S) Tabiiy va mehnat resurslari;
- D) Ishlab chiqarishning moddiy omillari;
- E) Kapital va ishchi kuchi;

2. Iqtisodiy faoliyat turlaridan qaysi birining natijasi tarzida moddiy - ashyoviy ko'rinishdagi ne'matlar chiqadi?

- A) Xizmat ko'rsatishda;
- B) Iste'molda;
- S) Iqtisodiy naqli ish bajarishda;
- D) Ishlab chiqarishda;
- E) Ayirboshlashda;

3. Iqtisodiy resurslar hisobiga olinadigan daromad turini aniqlang?

- A) Ish haqi;
- B) Foiz;
- S) Renta;
- D) Meyoriy foyda;
- E) Yuqoridagilarning barchasi;

4. Ijtimoiy ishlab chiqarish nima?

- A) Ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqarish jarayoni;
- B) Iste'mol buyumlarini ishlab chiqarish;
- S) Ishchi kuchini ishlab chiqarish;
- D) Jamiyat miqyosida amalga oshiriladigan ishlab chiqarish jarayoni;
- E) Ijtimoiy munosabatlarni ishlab chiqarish jarayoni;

5. Mehnat unumdarligi qanday aniqlanadi?

- A) Mahsulot miqdorini uni ishlab chiqarishga sarflangan ish vaqtiga nisbati bilan;
- B) Mahsulot miqdorini qilingan sarf - xarajatlarga nisbati bilan;
- S) Mahsulot miqdorini asosiy kapitalga taqqoslash yo'li bilan;
- D) Mahsulot miqdorini aylanma kapitalga taqqoslash yo'li bilan;
- E) Yuqoridagi barcha usullarda;

6. Jamiyat ehtiyojlarining miqdoran o'sib va tarkiban yangilanib borishiga ta'sir etuvchi omillarni ko'rsating:

- A) Aholi sonining o'sishi;
- B) Fan - texnika taraqqiyoti;
- S) Reklama va aloqa kommunikatsiyasining rivojlanishi;
- D) Milliy va xalqaro bozorlarning rivojlanishi;
- E) Yuqoridagilarning barchasi;

7. Ishchi kuchi tushunchasining mazmunini aniqlang:

- A) Moddiy ne'matlar yaratishda qatnashuvchi shaxs;
- B) Bilim va malakaga ega bo'lgan kishi;
- S) Ishlab chiqarishda ishtirok etuvchi shaxs;
- D) O'z ehtiyojini qondira oladigan kishi;
- E) Insonning mehnat qilishga bo'lgan aqliy va jismoniy qobiliyatları yig'indisi;

8. Ishlab chiqarish jarayoni nima?

- A) Ishlab chiqarish vositalarini iste'mol qilinishi;
- B) Moddiy va ma'naviy ne'matlarni yaratishga qaratilgan maqsadga muvofiq faoliyat;
- S) Mehnat predmetlaridan foydalanish jarayoni;
- D) Ishchi kuchidan samarali foydalanish jarayoni;
- E) Hamma javoblar to`g'ri;

9. Ishlab chiqarishning shaxsiy omili nima?

- A) Ish kuchi;
- B) Ishlab chiqarish vositalari;
- S) Mehnat qurollari;
- D) Kapital;
- E) Yer;

10. Ishlab chiqarish omillarining birikish usulini ko`rsating?

- A) Mehnat mahsuli ishlab chiqaruvchiga ta'luqli bo'ladi;
- B) Ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqaruvchining mulki hisoblanadi;
- S) Mehnat resurslari bilan ishlab chiqarish vositalari o'rtaida mulkiy tafovut bo'lmaydi;
- D) Ishlab chiqarish vositalari yagona shaxs mulki hisoblanadi;
- E) Mehnat mahsuli ishlab chiqaruvchiga tegishli bo'lmaydi;

3-MAVZU. IJTIMOIY-IQTISODIY TIZIMLAR VA MULKCHILIK MUNOSABATLARI

Mavzuga oid asosiy tushunchalar

Ishlab chiqaruvchi kuchlar - ishlab chiqarishning shaxsiy va moddiy omillari, ya'ni ishchi kuchi bilan ishlab chiqarish vositalari birligi.


Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar - bu kishilar uchun zarur bo`lgan hayotiy ne'matlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayrboshlash va iste'mol qilish jarayonida vujudga keladigan munosabatlar.

Mulkchilik munosabatlari - bu mulkka egalik qilish, uni tasarruf etish, undan foydalanish va o`zlashtirish jarayonida vujudga keladigan munosabatlar.


Davlat tasarrufidan chiqarish - bu davlat mulki hisobidan boshqa nodavlat mulk shakllarining vujudga keltirilishi.

KO`RGAZMALI CHIZMALAR

3.1-ko`rgazma



3.2-ko`rgazma



3.3-ko`rgazma

O`ZBEKISTONDA MULKCHILIK ISLOHOTINING ASOSIY QOIDALARI



Davlat mulkini xususiylashtirish iqtisodiy islohotlarning ichki mantiqiga bo`ysundiriladi va ularning asosini tashkil qiladi;




Mulkni xususiylashtirish davlat tomonidan boshqariladi;



Xususiylashtirishni xuquqiy-me'yoriy jihatdan ta'minlashda qonunlarga rioya etiladi.

3.1-chizma

Xususiylashtirilgan korxona va ob'ektlar soni (dona)



Manba: O`zR Davlat Mulk qumitasi ma'lumotlari.

RKMB orqali sotilgan mulklar tarkibi (jamiga nisbatan %da)

Mulk shakllari	2004.II	2004.I-II	2005.II	2005.I-II
Tugallanmagan qurilishlar:				
Soni	6,5	5,6	5,6	4,6
So`mmasi	4,3	4,1	3,2	4,0
Savdo va maishiy xizmat, ijtimoiy infratuzilma ob'ektlari				
Soni	11,0	10,8	9,1	9,5
So`mmasi	27,1	35,1	33,8	26,1
Qishloq va suv xo`jalik ob'ektlari				
Soni	15,2	15,8	33,0	38,7
So`mmasi	20,1	15,0	18,6	25,2
Yer uchastkalari				
Soni	40,4	48,5	27,8	26,0
So`mmasi	3,3	2,5	1,6	1,3
Turarjoy va noturarjoy imoratlari, boshqa mulklar				
Soni	26,9	19,3	24,5	21,2
So`mmasi	45,2	43,3	42,8	43,4
Jami				
Soni	100	100	100	100
So`mmasi	100	100	100	100

Manba: Respublika ko`chmas mulk birjasi ma'lumotlari.

TALABALAR BILAN ERKIN MULOQOT YURITISH SAVOLLARI

1. Jamiyat taraqqiyoti bochqichlarining almashinushi qanday qonuniyatga ko`ra amalga oshiriladi?
2. Jamiyat bazisi va ustqurmasi tushunchalarining mohiyatini, ularning o`zaro aloqadorligini qanday tushunasiz?
3. Jamiyat taraqqiyotining qanday iqtisodiy tizimlarini bilasiz va ularning mohiyati nimadan iborat?
4. Iqtisodiy munosabatlarning jamiyat ijtimoiy munosabatlari mohiyatini belgilovchilik rolini izohlang.
5. Ma'muriy - buyruqbozlik iqtisodiyotining mohiyati qanday?
6. Bozor iqtisodiyoti tizimining afzallik jihatlari nimalardan iborat?

7. Mulkchilik munosabatlarini nima uchun jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy poydevori deb ataymiz?
8. Xususiy mulkchilikning ijobiy va salbiy tomonlarini tushuntiring.
9. O'zbekistonda mulkchilik islohotlari nima maqsadlarda va qanday yo'llar bilan amalgalashirilmoqda?
10. Mulkchilikning qanday shakllarini bilasiz?

MAVZUGA OID TESTLAR

1. Iqtisodiy tizim nima?

- A) Jamiyatning asosiy yo'nalishi;
- B) Ishlab chiqarishni tashkil etish shakli;
- S) Ijtimoiy - iqtisodiy munosabatlar asosi;
- D) Ijtimoiy ishlab chiqarish shakli;
- E) Yuqoridagilarning barchasi;

2. Aralash iqtisodiyot nima?

- A) Turli mulk shakllariga va ularning teng xuquqliligiga asoslangan iqtisodiyot;
- B) Ma'muriy - buyuruqbozlikka asoslangan iqtisodiyot;
- S) Xususiy va jamoa mulkiga asoslangan iqtisodiyot;
- D) Shaxsiy va xususiy mulkka asoslangan iqtisodiyot;
- E) Buyruqli va bozor iqtisodiyotining ko'shilishi natijasida vujudga keladigan iqtisodiyot;

3. Nima, qanday, kim uchun ishlab chiqarish muammolari qaysi tizimga aloqador?

- A) Faqat totalitar tizimlarga yoki markazlashgan rejalashtirish hukmron bo'lgan jamiyatlarga;
- B) Faqat bozor iqtisodiyotiga;
- S) Faqat an'anaviy iqtisodiyotga;
- D) Sotsial-iqtisodiy va siyosiy tashkil qilinishidan qat'iy nazar har qanday jamiyatga;
- E) Faqat aralash iqtisodiyotga;

4. Iqtisodiy munosabatlar tizimida mulkchilikning o'rni qanday?

- A) Boylik manbai;
- B) Mulkchilik-ishlab chiqarish jarayonida ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning harakterini belgilaydi;
- S) Mulkchilik-mulkka egalik munosabatini ifodalaydi;
- D) Iste'molchi talabini qondirish vazifasini bajaradi;
- E) Taqsimotning harakterini belgilaydi;

5. Mulkiy munosabatlarning qaysi jihatni tuliq mulkdorlik mavqeini ta'minlaydi?

- A) Mulkka egalik qilish;
- B) Mulkdan foydalanish;

- S) Mulkni tasarruf qilish;
- D) Iqtisodiy faoliyat natijasini tasarruf qilish;
- E) Yuqoridagilarning barchasi;

6. Mulkni davlat tasarrufidan chiqarishning qaysi yo`li erkin tadbirkorlikka keng imkoniyatlar ochib berishni ko`zda tutadi?

- A) Hissadorlik jamiyatiga aylantirish;
- B) Jamoa mulkiga aylantirish;
- S) Ijaraga berish;
- D) Xususiy lashtirish;
- E) Chiqarilgan cheklar bo`yicha fuqarolarga bepul berish;

7. Ishlab chiqarish munosabatlarining u yoki bu turini taqozo etuvchi omilni ko`rsating?

- A) Jamiyatni boshqaruv shakli;
- B) Aholining daromad darajasi;
- S) Ishlab chiqaruvchi kuchlar rivojining muayyan darajasi;
- D) Iste'mol tovarlarining xilma-xilligi;
- E) Resurslarning zahirasi;

8. An'anaviy iqtisodiyot nima?

- A) Bozor iqtisodiyotiga asoslanadi;
- B) Tovar-pul munosabatlariga asoslangan iqtisodiyot;
- S) Mulkchilik turlarining xilma-xilligiga asoslanadi;
- D) Davlat mukchiligining hukmronligiga asoslangan iqtisodiyot;
- E) Natural yoki mayda tovar xo`jaligi hukmron bo`lgan iqtisodiyot;

9. Ishlab chiqarish usulini qanday tushunamiz?

- A) Ish kuchi bilan ishlab chiqarish vositalarining birligini;
- B) Mehnat qurollari bilan mehnat predmetlarining birligi;
- S) Pul vositalari bilan mehnat vositalarining birligini;
- D) Ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish munosabatlari muayyan turining birligini;
- E) Ishlab chiqarish resurslari bilan ish kuchining birligini;

10. Mulkdan foydalanishning mohiyatini aniqlang:

- A) Mulkdorlik xuquqining uning egasi qo`lida saqlanib turishi;
- B) Moddiy boyliklarni o`zlashtirishning ijtimoiy shaklini ifodalaydi;
- S) Mulkning iqtisodiy faoliyatda ishlatilishi;
- D) Mulk taqdirining mustaqil hal qilinishini;
- E) A va S javoblar to`g`ri;

4- MAVZU. TOVAR-PUL MUNOSABATLARI - BOZOR IQTISODIYOTINING ASOSI

Mavzuga oid asosiy tushunchalar

Tovar deb, biron-bir naflilikka va qiymatga ega bo`lgan ayrboshlash uchun yaratilgan mahsulotga aytildi.

Tovar ishlab chiqarish - bunda tovarlar o`zining iste'moli uchun emas, balki bozorda sotish, ayrboshlash uchun va boshqalarning iste'molini qondirish maqsadida ishlab chiqariladi.

Mehnat unumdorligi - ma'lum vaqt mobaynida ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori yoki mahsulot birligini ishlab chiqarish uchun ketgan vaqt sarfi.

Pul - bu hamma tovar va xizmatlarni sotish va sotib olish mumkin bo`lgan umumiyliekvivalentdir.

KO`RGAZMALI CHIZMALAR

4.1-ko`rgazma


TOVAR XO`JALIGINING VUJUDGA KELISHI SHARTLARI

Ijtimoiy mehnat taqsimoti


Ishlab chiqaruvchilarining alohidalashuvi

Erkin ayrboshlashning mavjudligi

4.2-ko`rgazma



4.3-ko`rgazma



4.4-ko`rgazma



TALABALAR BILAN ERKIN MULOQOT YURITISH SAVOLLARI

1. Natural xo'jalikning vujudga kelishi ob'ektiv qonuniyatmi?
2. Natural xo'jalikning ziddiyatlari va uning tovar xo'jaligidan farqlanishini tushuntiring?
3. Mahsulotning tovarga aylanishi shartlari nimalardan iborat?
4. Tovar xo'jligi bilan bozor iqtisodiyotining o'zaro aloqadorligi nimalarda ko'rindi?
5. Tovarning iste'mol qiymati uning qaysi jihatlarini o'z ichiga oladi?
6. Tovarning almashuv qiymati asosini tashkil etuvchi omil nima?
7. Tovarda mujassamlashgan mehnatning ikki xarakterini tushuntirib bering.
8. Mehnat unumdoorligining mohiyati va uni oshirish yo'llarini tushuntiring.
9. Pulning vujudga kelishi iqtisodiy zaruriyat ekanligini izohlang.
10. Pulning qanday vazifalarini bilasiz?

MAVZUGA OID TESTLAR

1. Quyidagi ta'riflarning qaysi biri bozor iqtisodiyotining mohiyatini to'laroq ifodalaydi?

- A) Mehnat taqsimoti mavjud bo'lган va tovar ishlab chiqarishga asoslangan iqtisodiyot.
- B) Iqtisodiy sub'ektlar faoliyati erkin amalga oshiriladigan iqtisodiyot.
- C) Tovar ishlab chiqarishga va uning bozor orqali pul vositasida ayir-boshlashga asoslangan, iqtisodiy sub'ektlarning erkin hatti harakati bozor mexanizmi orqali muvofiqlashtiriladigan iqtisodiyot;
- D) Urf-odatlar, udumlar va an'analarga asoslangan iqtisodiyot.
- E) Yuqoridagilarning barchasi;

2. Quyidagilardan qay biri bozor iqtisodiyotini tartibga soluvchi mexaniz-mining tarkibiy qismini tavsiflaydi?

- A) Narx, talab va taklif.
- B) Raqobat, talab va taklif.
- C) Narx, raqobat, talab va taklif.
- D) Narx, soliq, raqobat, davlat ijtimoiy dasturlari;
- E) Soliq, davlat ijtimoiy dasturlari, patent va litsenziyalash tizimi.

3. Bozor iqtisodiyotining salbiy tomoni nimada namoyon bo'ladi?

- A) Resurslarni taqsimlashda;
- B) Erkinlikni ta'minlashda;
- C) Pul daromadlarining notekis taqsimlanishida;
- D) Davlatning iqtisodiyotda cheklangan rol o'ynashida;
- E) Yuqoridagilarning barchasi;

4. Bozorning qaysi turida iste'molchilar monopol mavqeiga ega bo'ladi?

- A) Sof raqobatlari yoki erkin bozor;
- B) Monpollashgan raqobatlari bozor;
- C) Monopol raqobatlari bozor;
- D) Oligopolistik bozor;
- E) Monopsonistik bozor.

5. Bozor iqtisodiyotida tanlash erkinliklaridan qaysi biri yuqori o'rinda turadi?

- A) Ishlab chiqaruvchilarning;
- B) Iste'molchining;
- C) Resurslarni yetkazib beruvchilarning;
- D) Xizmat ko'rsatuvchilarning;
- E) Yuqoridagilarning barchasi;

6. Bozor iqtisodiyoti quyidagilarga kafolat beradi:

- A) Tovarlarning yetarli ishlab chiqarilishiga;
- B) Resurslarning samarali taqsimlanishiga;
- C) Pulning qadrsizlanmasligiga;
- D) Inflyatsiyaning mavjud bo'lmasligiga;
- E) Ishsizlik darajasining oshmasligiga;

7. Natural xo'jalikka xos bo'lgan belgini ko'rsating:

- A) Texnika taraqqiyoti muntazam yuksalib boradi;
- B) Mahsulotlar ishlab chiqaruvchining o'z iste'molini qondirish uchun ishlab chiqariladi;
- C) Mahsulotlar o'zgalar ehtiyojini qondirish uchun ishlab chiqariladi;
- D) Mahsulot sifati o'zgarib boradi;
- E) Raqobat ko'rashi keskinlashib boradi;

8. Tovarning iste'mol qiymati nima?

- A) Kishining u yoki bu ehtiyojini qondira olish qobiliyati;
- B) Boshqa bir tovarga ayirboshlana olish qobiliyati;
- C) Tovarning raqobatlasha olish qobiliyati;
- D) Tovar qiymatini belgilovchi omil;
- E) Tovarning iste'molchi tomonidan tan olingan xususiyati;

9. Ijtimoiy zaruriy ish vaqtি nima?

- A) Tovarning iste'mol qiymatini yaratishdagi mehnat sarfi;
- B) Tovar qiymatini yaratishdagi mehnat sarfi;
- C) Tovarning raqobatlashish qobiliyatini ta'minlaydigan mehnat;
- D) Ishlab chiqaruvchining individual mehnat sarfi;
- E) Jamiyatdagi mehnat malakasi va jadallahushi o'rtacha bo'lgan sharoitda biror-bir tovanni ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan ish vaqtidir;

10. Mehnat unumdarligining qiymatga ta'siri qanday?

- A) Mehnat unumdarligi bilan qiymat o'zarlo to`g'ri bog'liqda;
- B) Mehnat unumdarligi qiymatga ta'sir etmaydi;
- C) Mehnat unumdarligi bilan qiymat teskari bog'liqlikda;
- D) Mehnat unumdarligi ishlab chiqarish sarfini oshiradi;
- E) Mehnat unumdarligi qiymatni shakllantirmaydi;

**5- MAVZU. BOZOR IQTISODIYOTINING MAZMUNI VA
ASOSIY BELGILARI. BOZOR VA UNING TUZILISHI**

Mavzuga oid asosiy tushunchalar

Xalqaro mehnat taqsimoti alohida mamlakatlarda tovar va xizmatlarning ma'lum turlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashuvni ifodalaydi.


Xalqaro iqtisodiy integratsiya - bu turli mamlakat-larning chuqur, barqaror o'zaro aloqalarining rivojlanishi va milliy xo'jaliklar o'rtaSIDagi mehnat taqsimoti asosida ular o'rtaSIDagi xo'jalik aloqalarining birlashib borish jarayonidir.

Ishchi kuchi migratsiyasi faqatgina yashash joyini o'zgartirib, ko'chib yurishni emas, shu bilan birga yashash joyini o'zgartirmay biror mamlakatga borib ishlab kelish yo'li bilan ham sodir bo'lishi mumkin.


Umumiy bozor - bunda, uning qatnashchilari o'zaro erkin savdoni amalga oshirish va yagona tashqi savdo siyosati o'tkazish bilan birga, kapital va ish kuchining erkin harakati ta'minlanadi.

KO'RGAZMALI CHIZMALAR


26.1-ko 'rgazma



26.2-ko 'rgazma



26.3-ko 'rgazma



26.1-jadval

**O'zbekiston tashqi iqtisodiy faoliyatining
asosiy ko`rsatgichlari (mln. \$)**

Ko`rsatgichlar	04. I-II	05. I-II
Tashqi savdo aylanmasi	4150,7	4838,6
MDH davlatlari	1331,3	1653,9
Xorijiy davlatlar	2819,4	3184,7
Eksport	2419,9	2823,3
MDH davlatlari.	694,3	828,6
Xorijiy davlatlar.	1725,6	1994,7
Import	1730,8	2015,3
MDH davlatlari.	637,0	825,3
Xorijiy davlatlar.	1093,8	1190,0
Savdo balansi	689,1	808,0
MDH davlatlari.	57,3	3,3
Xorijiy davlatlar.	631,8	804,7
Tashqi savdo aylanmasi tarkibi, %	100,0	100,0
MDH davlatlari	32,1	34,2
Xorijiy davlatlar	67,9	65,8

26.2-jadval

O'zbekistonning tashqi savdo balansi (mln. \$)

Davr	Eksport	Import	Savdo balansi
2000	3264,7	2947,4	317,3
2001	3170,4	3136,9	33,5
2002	2988,4	2712,0	276,5
2003	3725,0	2964,2	760,8
2004	4853,0	3816,0	1037,0
04.I-II	1209,9	856,6	353,3
05.I-II	1495,4	1049,9	445,5

Manba: Iqtisodiy yo'nalishlar: choraklik nashr. 2001 y. Iyul-sentyabr.

TALABALAR BILAN ERKIN MULOQOT YURITISH SAVOLLARI

1. Xalqaro iqtisodiy aloqalar bozor iqtisodiyotiga xos xususiyat ekanligini izohlang.
2. Xalqaro mehnat taqsimoti jahon xo`jaligini vujudga keltiruvchi omil ekanligini tushuntiring.
3. Ishlab chiqaruvchi kuchlarning baynalminallashuvi tushunchasining

- mazmunini izohlang.
4. Jahon narxlarining shakllanishi qanday omillarga bog`liq?
 5. Xalqaro iqtisodiy aloqalarning jadallahuv omillari nimalardan iborat?
 6. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar qanday shakllarda olib boriladi?
 7. Kapital xalqaro harakatining mamlakatlar iqtisodiy faoliyatiga ta'siri qanday?
 8. Xalqaro iqtisodiy integratsiya va uning shakllarini izohlang.
 9. Qanday xalqaro iqtisodiy tashkilotlarni bilasiz?
 10. O`zbekistonning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi jarayoni qanday o`zgarishlar orqali ro`y bermoqda?

MAVZUGA OID TESTLAR

1. Jahon infratuzilmasi nima?

- A) Jahon savdosi
- B) Ilmiy-texnikaviy aloqalar
- S) Xalqaro axborot
- D) Jahon bozorida tovarlarni ishlab chiqaruvchidan iste'molchilarga yetkazib beruvchi sohalar
- E) Xalqaro iqtisodiy munosabatlar

2. Korxonaning tashqi iqtisodiy faoliyatiga baho berishda qaysi ko`rsatkich asosiy hisoblanadi?

- A) Eksport hajmi
- B) Import hajmi
- S) Sof eksport hajmi
- D) Barterli ayirboshlash hajmi
- E) Bir-birini qoplovchi to`lovlar hajmi

3. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning eng oddiy shakli - bu:

- A) Boj ittifoki
- B) To`lov ittifoqi
- S) Erkin savdo zonalari
- D) Umumiy bozor
- E) Iqtisodiy va to`lovlar ittifoqi

4. O`zbekistonda iqtisodiy aloqalarni shakllantirishda qanday tamoyillarga amal qilinadi?

- A) Umuminsoniy manfaatlarga
- B) Milliy manfaatlarga
- S) Sinfiy manfaatlarga
- D) Davlat manfaatlariga
- E) Umuminsoniy va milliy manfaatlar mushtarakligiga

5. O'zbekiston o'zining aloqalarini qanday asosda tashkil etmoqda?

- A) NATO doirasida
- B) Yevropa havfsizlik va hamkorlik tashkiloti doirasida
- C) Xalqaro valyuta fondi orqali
- D) Ko'p tomonlama hamkorlik asosida
- E) Ham ko'p tomonlama va ham ikki tomonlama asosida

6. O'zbekiston hozirda jahondagi nechta mamlakatlar bilan rasmiy diplomatik aloqalar o'rnatgan?

- A) 165 ta
- B) 120 dan ortiq
- C) 210 ta
- D) 88 ta
- E) 100 ta

7. Xalqaro mehnat taqsimoti - bu:

- A) Mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro savdo aloqalari;
- B) Mamlakatning xalqaro maydondagi mavqeい;
- C) Mamlakatning tovar va xizmatlarning ma'lum turlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashuvi;
- D) Yangi iqtisodiy faoliyat turini yaratish;
- E) Yangi turdag'i mahsulot bilan jahon bozoriga chiqish;

8. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning shaklini ko'rsating:

- A) Tovar va xizmatlar bilan savdo;
- B) Ishchi kuchi migratsiyasi;
- C) Valyuta-kredit munosabatlari;
- D) Fan va tehnika sohasidagi ayirboshlash;
- E) Barchasi to'g'ri;

9. Emigratsiya atamasining mazmunini to'g'ri ko'rsating:

- A) Kasbiy mahoratni oshirish maqsadida xorijga chiqish;
- B) Ilg'or texnologiyani chet eldan kiritish;
- C) Boshqa mamlakatga investitsiya chiqarish;
- D) Bir mamlakatdan boshqa mamlakatga doimiy yashash uchun chiqib ketish;
- E) Chet eldan bilimli kishilarni mamlakatga kiritish;

10. Xalqaro iqtisodiy integratsiyani taqozo etuvchi omillardan birini ko'rsating:

- A) Mamlakatlarning siyosiy yaqinlashuvi;
- B) Xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi;
- C) Kasbiy mahoratlar bo'yicha mamlakatlar o'rtasidagi ayirboshlanuv;
- D) Mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishi;
- E) Hammasi to'g'ri.

27-MAVZU. JAHON BOZORI. XALQARO VALYUTA VA KREDIT MUNOSABATLARI

Mavzuga oid asosiy tushunchalar

Eksport tovarlarni chet ellik mijozlarga tovar yoki xizmat sotish bo`lib, bunda mazkur mamlakatda ishlab chiqarilgan tovarlar yoki xizmatlar mamlakatdan tashqariga chiqariladi.

Reeksport - bu qandaydir mamlakat ishlab chiqaruvchi mamlakatdan tovarlarni o`z iste'moli uchun emas, balki boshqa mamlakatga qayta sotish uchun sotib olishdir.

Xalqaro valyuta tizimi - xalqaro valyuta munosabatlarida va davlatlararo bitimlarda huquqiy jihatdan mustahkamlangan va xalqaro hisob-kitoblarni amalgalashirishda qo'llaniladigan tartib-qoidalar.

Valyuta kursi - bir mamlakat valyutasining boshqa mamlakat valyutasida ifodalangan bahosi.

KO'RGAZMALI CHIZMALAR

27.1-ko `rgazma

XALQARO SAVDONING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Mamlakatlar o`rtasida iqtisodiy resurslar ancha sekin harakatlanadi

Xar bir mamlakat turli valyutadan foydalanadi

Xalqaro savdo siyosiy aralashuvlarga muhtojlik sezadi

ERKIN SAVDO YO'LIDAGI TO`SIQLAR

Boj to`lovleri

Import kvotalari

Tarifsiz to`sinqular

Eksportni ixtiyoriy cheklash

27.2-ko `rgazma

XALQARO VALYUTA TIZIMINING TARKIBIY ELEMENTLARI

- Xalqaro to`lov vositalari;
- Valyuta kurslarini belgilash va ushlab turish mexanizmi;
- Xalqaro to`lovlarni balanslashtirish tartibi;
- Valyutaning qaytaruvchanlik sharoiti;
- Xalqaro valyuta va oltin bozorlari tartibi;
- Valyuta munosabatlarini tartibga soluvchi davlatlararo muassasalar tizimi.

JAHON VALYUTA TIZIMINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

1879-1934 yillar
Oltin andoza sifatidagi pul tizimi

1944-1971 yillar
Oltin-valyuta andoza tizimi

1971 yildan bugungacha
Boshqariladigan «suzib yuruvchi» valyuta tizimi

27.3-ko `rgazma

VALYUTA TIZIMIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

Milliy daromad va ishlab chiqarish xarajatlari darajasi

Milliy iste'molchilarning real xarid qilish
layoqati va mamlakatdagi infliyatsiya darajasi

To'lov balansi holati

Mamlakatdagi foiz stavkasi darajasi

Valyutaga jahon bozoridagi ishonch va x.k.

27.1-jadval

So`mning AQSh dollariga nisbatan almashinuv kursi dinamikasi (davr oxirida)

Davr	MB ayirboshlash kursi (so`m.\$)	Avvalgi davrga nisbatan o'zgarishi (%da)
2000	325	132,1
2001	688	111,7
2002	970	41,0
2003	980	1,0
2004	1058	8,0
04.I	1000	2,0
04.I-II	1020	2,0
05.I	1080	2,1
05.I-II	1115	3,2

Manba: «Банковские ведомости» gazetasi, mualliflar hisob-kitoblari.

TALABALAR BILAN ERKIN MULOQOT YURITISH SAVOLLARI

1. Mamlakat tashqi savdo aylanmasining eksport va importi qanday ko`rsatgichlari mavjud?
2. Mamlakat xalqaro savdo balansidagi muvofiqlik nima?
3. Xalqaro savdoning qanday o`ziga xos xususiyatlarini bilasiz?
4. Xalqaro erkin savdoga xalaqit beruvchi to`siqlar haqida nimalarini bilasiz?
5. Qanday transmilliy korporatsiyalar O`zbekistonda faoliyat ko`rsatadi?
6. Eksportni rag`batlantirishning qanday yo`llari bor?
7. Erkin konvertirlangan xalqaro valyutalar qanday xususiyatlarga ega bo`ladi?
8. Jahon valyuta tizimi qanday rivojlanish bochqichlariga ega?
9. Valyuta kurslarining o`zgarishiga qanday omillar ta'sir etadi?
10. Jahon mamlakatlarining iqtisodiy yetukligi darajasi bo`yicha tabaqlanishini izohlang.

MAVZUGA OID TESTLAR

1. Jahon bozorida narxlarning tashkil topishiga qanday omillar ta'sir ko`rsatadi?

- A) Baynalminal xarajatlar darajasi
- B) Tovarlarning jahon andozalariga javob berishi
- S) Jahon bozoridagi talab va taklif nisbati
- D) Raqobat darajasi
- E) Yuqoridagilarning barchasi

2. Amerika dollarining real almashuv kursi oshib borsa:

- A) Amerika fuqarolari uchun import tovarlar arzonroq bo`ladi
- B) Amerika sof eksporti qisqaradi
- S) Joriy operatsiyalar balansi taqchilligi oshib boradi
- D) Ichki narxlar o`sadi
- E) Yuqoridagi javoblarning hammasi to`g`ri

3. Milliy iqtisodiyotda daromad solig`i oshsa, u holda:

- A) Sof eksport o`sadi
- B) Investitsiyalar ko`payadi
- S) Muvozanatlashgan almashuv kursi o`sadi
- D) Iste'mol o`sadi
- E) Sof eksport qisqaradi

4. Savdo balansi qachon faol bo`ladi?

- A) Eksport q import
- B) Byudjet daromadlari q byudjet xarajatlari
- S) Eksport < import
- D) eksport > import
- E) Yuqoridagilarning barchasi

5. Xalqaro savdo aylanmasi nima?

- A) Import hissasining ortishi
- B) Eksport hissasining ortishi
- S) Eksport va import nisbati
- D) Eksport va importdagi farq
- E) Eksport va import hajmi

6. Import tovarlarga soliq solishdan maqsad nima?

- A) Importni rag`batlantirish
- B) Eksportni rag`batlantirish
- S) Ichki bozor narxlarini oshirish
- D) Milliy iqtisodni import tovarlardan himoya qilish
- E) Yuqoridagilarning barchasi

7. Quyidagilardan qaysi biri erkin savdo yo`lidagi ta'riffsiz to`siqlar hisoblanadi?

- A) Boj to`lovlarini va import kvotalarini
- B) Litsenziyalash tizimi
- S) Mahsulotlar sifatiga standartlar qo`yish
- D) A va B to`g`ri
- E) B va V to`g`ri

8. Xalqaro valyuta munosabatlarida «suzib yuruvchi» valyuta tizimi qaysi davrlarda amal qilgan?

- A) XVIII asr oxiridan ikkinchi jahon urushigacha
- B) Ikkinchi jahon urushidan 1970 yillar boshigacha
- S) 1970 yillardan hozirgi davrgacha
- D) Yuqoridagi barcha davrlarda
- E) Hech davrda amal qilmagan

9. Xalqaro valyuta munosabatlarda amal qilingan «Oltin standartning» kamchiligi nimadan iborat?

- A) Valyuta kurslariga barqarorlik berishi
- B) To`lov balansi kamyob va ortiqchaligini muvozanatga keltirishi
- S) Milliy valyutalarni bir-biriga kuchli bog`lash
- D) Oltin zahiralar tugamaguncha amal qilishi
- E) Xalqaro savdoning o`sishini rag`batlantirishi

10. Valyuta kurslarining o`zgarishiga qanday omil ta'sir ko`rsatadi?

- A) Mamlakatlar milliy daromadining o`zgarishi
- B) Xalqaro narxlardagi nisbiy o`zgarishlar
- S) Milliy valyutalarga talab va taklifning o`zgarishi
- D) Nisbiy real foiz stavkalarining o`zgarishi
- E) Yuqoridagilarning barchasi.

FOYDALANILGAN MANBALAR

1. Karimov I.A. O`zbekiston buyuk kelajak sari. -T: O`zbekiston, 1998.
2. Karimov I.A. Erishilgan yutuqlarni mustahkamlab, yangi marralar sari izchil harakat qilishimiz lozim (2006 yil 10-fevralda O`zR Vazirlar Mahkamasining 2005 yil yakunlariga bag`ishlangan majlisida so`zlagan nutqi). «Xalq so`zi» gazetasi, 2006 yil 11-fevral soni.
3. Shodmonov Sh.Sh., Jo`raev T.T., Romanovskiy G.M. «Iqtisodiyot nazariyasi» fanidan namunaviy dastur (bakalavr yo`nalishi uchun). -Toshkent, 2004. -28bet.
4. Shodmonov Sh.Sh, Alimov R.X., Jo`raev T.T. Iqtisodiyot nazariyasi: Darslik. -T.: Moliya, 2002.
5. O`lmasov A., Shodmonov Sh.Sh. Iqtisodiyot nazariyasi: Darslik. - T: Sharq, 2006.
6. O`zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi ko`rsatkichlari. -T.: YuSAID, 2005.

TESTLAR JAVOBLARI

1-mavzu

1 -	6 -
2 -	7 -
3 -	8 -
4 -	9 -
5 -	10 -

2-mavzu

1 -	6 -
2 -	7 -
3 -	8 -
4 -	9 -
5 -	10 -

3-mavzu

1 -	6 -
2 -	7 -
3 -	8 -
4 -	9 -
5 -	10 -

4-mavzu

1 -	6 -
2 -	7 -
3 -	8 -
4 -	9 -
5 -	10 -

5-mavzu

1 -	6 -
2 -	7 -
3 -	8 -
4 -	9 -
5 -	10 -

6-mavzu

1 -	6 -
2 -	7 -
3 -	8 -
4 -	9 -
5 -	10 -

7-mavzu

1 -	6 -
2 -	7 -
3 -	8 -
4 -	9 -
5 -	10 -

8-mavzu

1 -	6 -
2 -	7 -
3 -	8 -
4 -	9 -
5 -	10 -

9-mavzu

1 -	6 -
2 -	7 -
3 -	8 -
4 -	9 -
5 -	10 -

10-mavzu

1 -	6 -
2 -	7 -
3 -	8 -
4 -	9 -
5 -	10 -

11-mavzu

1 -	6 -
2 -	7 -
3 -	8 -
4 -	9 -
5 -	10 -

12-mavzu

1 -	6 -
2 -	7 -
3 -	8 -
4 -	9 -
5 -	10 -

13-mavzu

1 -	6 -
2 -	7 -
3 -	8 -
4 -	9 -
5 -	10 -

14-mavzu

1 -	6 -
2 -	7 -
3 -	8 -
4 -	9 -
5 -	10 -

15-mavzu

1 -	6 -
2 -	7 -
3 -	8 -
4 -	9 -
5 -	10 -

16-mavzu

1 -	6 -
2 -	7 -
3 -	8 -
4 -	9 -
5 -	10 -

17-mavzu

1 -	6 -
2 -	7 -
3 -	8 -
4 -	9 -
5 -	10 -

18-mavzu

1 -	6 -
2 -	7 -
3 -	8 -
4 -	9 -
5 -	10 -

19-mavzu

1 -	6 -
2 -	7 -
3 -	8 -
4 -	9 -
5 -	10 -

20-mavzu

1 -	6 -
2 -	7 -
3 -	8 -
4 -	9 -
5 -	10 -

21-mavzu

1 -	6 -
2 -	7 -
3 -	8 -
4 -	9 -
5 -	10 -

22-mavzu

1 -	6 -
2 -	7 -
3 -	8 -
4 -	9 -
5 -	10 -

23-mavzu

1 -	6 -
2 -	7 -
3 -	8 -
4 -	9 -
5 -	10 -

24-mavzu

1 -	6 -
2 -	7 -
3 -	8 -
4 -	9 -
5 -	10 -

25-mavzu

1 -	6 -
2 -	7 -
3 -	8 -
4 -	9 -
5 -	10 -

26-mavzu

1 -	6 -
2 -	7 -
3 -	8 -
4 -	9 -
5 -	10 -

27-mavzu

1 -	6 -
2 -	7 -
3 -	8 -
4 -	9 -
5 -	10 -

M U N D A R I J A

1-mavzu. Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti va uslubi	3
2-mavzu. Ishlab chiqarish jarayoni mazmuni, omillari va natijalari	7
3-mavzu. Ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar va mulkchilik munosabatlari	11
4-mavzu. Tovar-pul munosabatlari - bozor iQtisodiyotining asosi.....	17
5-mavzu. Bozor iqtisodiyotining mazmuni va asosiy belgilari. Bozor va uning tuzilishi	20
6-mavzu. Bozor iqtisodiyotiga o`tish davri. O`zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o`tish tamoyillari va xususiyatlari.....	25
7-mavzu. Talab va taklif nazariyasi. Bozor muvozanati	29
8-mavzu. Raqobat va narxning shakllanishi.....	33
9-mavzu. Tadbirkorlik faoliyati va uning shakllari	38
10-mavzu. Tadbirkorlik kapitali va uning aylanishi	44
11-mavzu. Korxona (firma) sarf-xarajatlari va foydasi	48
12-Mavzu. Ish haqi va mehnat munosabatlari	53
13-mavzu. Agrar munosabatlar va agrobiznes.....	57
14-mavzu. Milliy iqtisodiot va uning makroiqtisodiy ko`rsatkichlari. Yalpi milliy mahsulot va uning harakat shakllari	62
15-mavzu. Yalpi talab va yalpi taklif	66
16-mavzu. Iste'mol, jamg`arma va investitsiyalar	71
17-mavzu. Iqtisodiy o`sish va milliy boylik	77
18-mavzu. Milliy iqtisodiyotning nisbatlari va muvozanati	81
19-mavzu. Iqtisodiyotning siklliligi va makroiqtisodiy barqarorlik	86
20-mavzu. Yalpi ishchi kuchi, uning bandligi va ishsizlik	90
21-mavzu. Moliya tizimi va moliyaviy siyosat	93
22-mavzu. PUL MUOMALASI VA INFLYATSIYA.....	97
23-mavzu. KREDIT-BANK TIZIMI VA UNING BOZOR IQTISODIYOTIDAGI ROLI.....	103
24-mavzu. BOZOR IQTISODIYOTINING TARTIBLANISHI DAVLATNING IQTISODIY ROLI.....	109
25-mavzu. AHOLI DAROMADLARI VA DAVLATNING IJTIMOIY SIYOSATI.....	113
26-mavzu. JAHON XO`JALIGI VA UNING EVOLYUTSIYASI	119
27-mavzu. JAHON BOZORI. XALQARO VALYUTA VA KREDIT MUNOSABATLARI.....	120
FOYDALANILGAN MANBALAR.....	130
TESTLAR JAVOBLARI	131

ФИКР-МУЛОХАЗАЛАР УЧУН

